

TROYA AFSONASI

Ilmiy rahbar: Gapparova M.T.

Navoiy davlat pedagogika institutining o'qtuvchisi

E'zoza Ro'ziyeva

Navoiy davlat pedagogika institutining 4-kurs talabasi

Navoiy viloyati Xatirchi tumani 15-maktab

Ingliz tili o'qtuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mashhur Kichik Osiyoda kichik shaharlardan biri troyaning vujudga kelishi, uni tarixan haqiqattan ham mavjud bo'lganligi hamda Troya urushi sabab va natijalari haqida fikr yuritiladi.

Tayanch tushunchalar: troya, kichik osiyo, troya urushi, yunoniston, gomer, illiada,

Abstract: This article reflects on the emergence of Troy, one of the famous small cities in Asia Minor, the fact that it has historically also existed, as well as the causes and results of the Trojan War.

Key words: Troy, Asia Minor, Trojan War, Greece, homer, iliada

KIRISH. Qadimgi Yunoniston boy tarixiy madaniyatga ega bo'lib milloddan avvalgi 2-3 ming yilliklardayoq o'zining ravnaq cho'qqisiga erishgan. Maktabda bolalarga Gomer, Sofokl, Aristofan kabi adiblarning asarlari o'qitilgan. Ayniqsa, Gomerning "Illiada" va "Oddiseya" dostonlarini sevib o'qishgan. Illiada dostoni "Troya urushi"ning oxirgi o'ninchi yili haqida hikoya qiladi.

Tarixni takidlashicha, Troya shahri Kichik Osiyoda joylashgan bo'lib, u g'oyatda qudratli shahar bo'lgan. Gomerning "Illiada" dostonida aytishicha, Troya shahrini Zevsning o'g'li Dardanning evarasi Il asos solgan. Urushga sabab bu Kichik Osiyoda joylashgan Troya shahrini mo'l-ko'l o'lja ilinjida bosib olishga harakat qilishgan. Gomerning "Illiada" dostoniga ko'ra urushga sabab, Sparta podshosining rafiqasi Yelenani Troya podshosining o'g'li Paris o'g'irlab ketadi. Yelena go'zallikda tengi yoq, Sparta shohi Tindarning qizi o'zining husn-u malohati bilan butun yunon ahliga ovoza bo'lgan edi. Natijada turli joylardan kuyovlar nomzod bo'la boshlaydi, nomzodlar pahlavonlar bilan jang qilishadi nihoyat Yelena kuyovlar orasidan Menlay ismli pahlavonni tanlaydi. Va Tindar uni Sparta qiroli qilib saylaydi. Kunlar o'tib Priamning o'g'li Paris Sparta yo'l oladi va og'asi Xelen uni qaytarishga urinadi, ammo Paris unga quloq solmaydi. Kassandra ismli kohin Troyaning ayanchli qismati haqida bashorat qilgan edi, ya'ni bashoratiga ko'ra Troya shahri olovda yonib ketishi haqida tush ko'radi va unga sabab Paris edi. Kassandra mashhur bashoratchi bo'lib ko'p hollarda uning bashoratlari haqiqat bo'lib chiqar edi. Kassandra Parisni otasini

ogohlantirgan edi. Do'sti Yeneý bilan bo'lgan ziyofatda Paris Yelenani ko'rib husniga oshiq bo'lib qoladi va oxir oqibat uni o'g'irlab ketadi. Bundan xabar topgan Minelay Parisdan qasd olish maqsadida o'z og'asi Agamennon va boshqa yunon qahramonlari yordamida Troyaga qarshi yurish qilishga o'tlanadi. Mil. avv. 1260-yilda Miken shohi Agamennon boshliq Yunon shahardavlatlarining floti Troya ustiga bostirib keladi. Troya shohi Priam frigiyaalik, likiyaalik va frakiyaliklarni yordamga chaqirib, ular kelgunlariga qadar kurashni boshlab yuboradi. Urush 10 yil davom etadi. Yunonlar Troyani ishg'ol qilish uchun uzluksiz janglar olib borganlar. Chunki shahar qalin, mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan edi. Ular har qancha urinmasin shahar ichkarisiga kira olmaganlar. Chunki troyaliklar o'zlarining jonajon shaharlarini mardonavor himoya qilganlar.[1]

Odisseyning maslahati bilan yunonlar ayyorlikni ishga soladilar: ichi bo'm-bo'sh ulkan yog'och ot yasashadi. Ana shu yog'och ot ichiga yunon qo'shinlarining bir qismi yashiringan, qo'shinning boshqa bir qismi esa yaqindagi orollardan biriga o'rnashib olgan edi. Troyaliklar yunonlar qamal qilishni to'xtatishdi va Troya homiysi Afina Palladaga xush kelishi uchun bizga ot sovg'a qilibdi, degan xulosaga kelib, yo'g'och otni shaharga olib kiradilar. Kechasi otning ichidan chiqqan jangchilar darvozalarni ochadilar va Troya bosib olinadi. Hozirgi tillarda «Troya oti» iborasi xosiyatsiz sovg'a-salom ma'nosini anglatadi.[2]

Shaharni jang bilan olishga ko'zi yetmagan yunonlar harbiy hiyla ishlatishga jazm qiladilar. Ular Yunonistonning Itaka oroli shohi Odisseyning maslahati bilan yog'ochdan katta ot yasaydilar. Yog'och ot ichiga jasur jangchilarni joylab, uni Troya shahri devori tagiga olib borib qo'yadilar. Troyaliklar shubhalanmasliklari uchun yunonlar shahar devori atroflaridan chekinib dengizdagi kemalariga borib o'rnashadilar. Troyaliklar yunonlarning mash'um hiylasidan bexabar shahar devori ostidagi ulkan yog'och otni xotirjamlik bilan shaharga olib kirib, uni tomosha qiladilar. Tomoshadan keyin troyaliklar xotirjam bo'lib uyquga ketadi. Fursatdan foydalanib yunon jangchilari yog'och ot ichidan chiqib uyquda yotgan darvoza posbonlarini o'ldirib shahar darvozasini ochadilar. Bu vaqtda yunon askarlari kemalardan qaytib kelib shaharga bostirib kirishga tayyor turgan edi. Shundan so'ng yunon jangchilari shaharga seldek bostirib kiradi. G'aflatda qolgan troyaliklar uyg'onib, yunonlar bilan ayovsiz jang boshlaydilar. Yunonlar qal'adagi aholini shafqatsiz ravishda qirg'in-barot qiladi. Shaharni talon-taroj qilib, unga o't qo'yadilar. Ular ko'p o'lja va asirlar bilan Yunonistonga qaytadi. Qaytishda dengizda halokatga uchrab, ko'pchiligi halok bo'ladi. Yunonlar ketgach Troya 400 yilcha tashlandiq holda xarob bo'lib yotadi.

Troya oti — yunon rivoyatlariga ko'ra, yog'ochdan ishlangan ulkan ot; uning ichiga yashirinib olgan yunonlarning sara askarlari Troyaga kirganlar. Troyaliklar yunonlarning bu hiylasidan g'aflatda qolishgan va shahar devori oddida turgan otni shaharga olib kirishgan. Tunda yunonlar otning ichidan chiqib qal'a darvozasini

ochganlar va qolgan qo'shinni shaharga kirishiga imkon berganlar. "Troya oti" iborasi majoziy ma'no (dushmanni halok etish maqsadida unga tuhfa berish) kasb etgan.

Bolqon yarim oroli janubining va Kichik Osiyo Egey sohilining qadimgi tarixini arxeologik tadqiq qilish XIX asrning so'nggi choragida ancha kuchaya boshladi. 1870-yilda Genrix Shlimann Turkiya hududida, Kichik Osiyoning shimoli-g'arbiy qismida, Hissorlik tepaligida dastlabki qazuv ishlarini boshlaydi. Genrix Shlimann "Iliada" dostonida keltirilgan ma'lumotlarga tayanib, mazkur tepalik ostida Gomer hikoya qilgan Troyaning xarobalari bo'lishi kerak, deb o'ylagan edi. U 1870-yildan 1890-yilgacha, orada ba'zan tanaffuslar qilib, Hissorlik tepaligida maxsus qazuv ishlarini amalga oshirdi va natijada faqat Troyaning o'rnashgan joyinigina topib qolmasdan, balki shu bilan birga Egey dengizining eng qadimgi madaniyatiga oid juda muhim manbani ham topdiki, buni u hatto xayoliga ham keltirmagan edi. G. Shlimann ushbu hududda o'z vafotigacha, ya'ni 1890-yilgacha tadqiqot o'tkazdi va Troya shahrini 20 yil o'rgandi. Shunday qilib, Shlimann balandligi 20 metr bo'lgan sun'iy tepalikni topishga muvaffaq bo'ldi. Uning topilmalarida oltin va kumushdan yasalgan zargarlik buyumlari va idishlar bor edi, ular esa Gomer "Iliada" dostonida tasvirlagan narsalarga o'xshardi. Biroq Genrix Shlimann qadimgi Troya joylashgan o'rinni toparkan, Troyaning xarobalari joylashgan arxeologik qatlamni aniqlashda adashgan. U shuni hisobga olmaganiki, eski shahar xarobalari ustida yangi shahar qurilganda tepaning yangi quruvchilari odatda maydonni tekislaganlar va eski imorat qatlamining qoldiqlarini qisman yo'q qilib yuborganlar. Shu sababli Shlimann dan keyin tadqiqot o'tkazgan olimlar avlodi tepalikning nishablarini qazib ko'rishga alohida e'tibor berganlar va Gomer hikoya qilgan Troyaning arxeologik qatlami o'rinni aniqlab olganlar.[3]

Arxeologik qazishmalar natijasida hozirgi Turkiyaning Hissorlik tepaligida Genrex Shliman Troya qoldiqlarini topishga muvaffaq bo'ladi. Bundan 4 ming yil muqaddam bu shahar Traoda viloyatining markazi bo'lgan. Miloddan avvalgi XX asrda shahar dushmanlar tomonidan talanib, vayron qilib yondirib yuborilgan. Keyinchalik Troya o'zini tiklab olgan. Mil.av XVIII-XIII asrlarda Troya podsholigi gullab yashnadi. Troyada xetlar, luvinlar, frigiylar, yunonlar va boshqa xalqlar yashaganlar.

Gomer o'zi afsonaviy shaxs. Homer so'zi aslida "ko'zi ojiz", "so'qir" kabi ma'nolarni anglatar ekan. U butun antic davrnida mashhur dostonnavislardan biri bo'lib, o'zining noyob istedodi bilan tarixda chuqur iz qoldirgan. U dostonchilikning yangi bir davrini boshlab bergan shaxs sifatida nomi ulug'lanadi. 24 qo'shiqdan iborat bo'lgan har bir dostoni bir xil vaznda yozilgan va tarixdan to hozirgacha sevib o'qiladi. Gomer davrimizning eng dolzarb muammolaridan biri urush va tinchlik haqida o'z qarashlarini va hayajonli emotsiyalarini asarlarida namoyon qilgan. Ma'lumki, tarixiy voqealarga asoslangan qahramonlik dostonlari qariyb har bir xalqda bor, xususan

o'zbeklarda ham. Bu borada o'xshashliklar bor ammo "iliada" dostoni har bir xalqning sevimli dostonlaridan biri bo'lishiga sabab, asar nafaqat qahramonlik balki, urushga nisbatan qarshilik va go'zallikka oshno ekanligi hamda vafo-sadoqat kabi tuyg'ularni ham o'z asarlarida jo qilgan.

XULOSA. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'tmishda turli shahar va davlatlar vujudga kelgan , rivojlangan, yuksalgan hamda inqirozga yuz tutgan. Va lekin, hammasi ham tarixdan o'chmas iz qoldirmagan bo'lishi mumkin. Troya haqida gap ketganda esa, albatta yuksak qudrat va buyuklikka erishgan shahar sifatida ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Uning qudrati haqida bizgacha yetib kelishida nafaqat arxeolog va qadimshunoslarning mehnati va albatta Gomerning hissasi beqiyosdir. Ularning sharofatlari bilan bugungi kunda antic davrning qadimiy shahari Troya haqida va boshqa qadimgi dunyo tarixidan so'zlaydigan obida va qadamjolar haqida ma'lumotlarga ega bo'lib kelyapmiz.

Adabiyotlar:

1. Gomerning "Iliada" va "Odisseya" dostoni
2. A.S. Sagdullayev, V.A. Kostetskiy TARIX QADIMGI DUNYO «Yangiyo'l Poligraf Servis» Toshkent – 2017 [107-108]
3. "PEDAGOGS" INTERNATIONAL RESEARCH JOURNAL ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995[50]
4. Крушкол Ю. С. История древнего мира, часть II. – Ташкент , 1975. Ст. – 20.